


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
MOSCOW • RUSSIA



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek PHYSALIS ALKEKENGII O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLISHNING BIOTEXNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек XUSUSIIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIJ TAJIRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A. IPAKCHILIK KLASSTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASSTERLARIDA "SANOAT 4.0" TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	222
Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович	
OPTIK ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ...	255
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	258
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIQIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODEL	266
Akhmetova Salima Seytovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY - USLUBIY JIHATLARI	272
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
YASHIL INVESTITSİYALAR MINTAQQA IQTISODIYOTINI BARQAROR DIVERSIFIKATSİYALASH VOSITASI SIFATIDA	281
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
DAVLAT MUASSASALARIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	287
Xusanova Muxsina Kasimovna	
O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI VA UNDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR TAHLILI	294
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD MANBALARI INDEKSI VA UNING RENTABELLIGIGA TA'SIRI	300
Ahmedov Komron Muhammad-Alievich	
KORPORATIV BOSHQARUV MEKANIZMLARINING ISHLASH TAMOIYILLARI VA ULARNI QURILISH KORXONALARI AMALIYOTIGA JORIY ETISH MASALALARI	308
G'iyosov Ilxom Karimovich	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	316
Sattarov R.A.	



UY-JOY BOZORIDA BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI SEGMENTLAR O'RTASIDAGI NARX TAFOVUTLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNING IQTISODIY TAHLILI	322
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TABIY RESURLAR SAMARADORLIGI VA INSON KAPITALI INTEGRATSIYASINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON HUDUDLARI MISOLIDA	329
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
CHAKANA SAVDODA MAHSULOT TALABINI BASHORATLASH USULLARI	336
Mamatov Narzullo, Baxtiyorova Mohiruy	
SOLIQ AUDITIDAGI XAVF-XATARLARNI TAHLIL QILISH (RISK-ANALIZ) TIZIMI VA BUXGALTERNING HIMOYA TAKTIKASI	343
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING NAZARIY ASOSLARI	347
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
MA'LUMOTLARNI MOLIVAVIY HISOBOTDA TAQDIM ETISHNING XORIY TAJRIBASI.....	351
Kozimjonov Abrorbek	
TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI SANOAT ZONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	357
Arifbayev Bobir Dilshodovich	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA TRANSCHEGARAVIY SUG'URTA VA DAVLAT KAFOLATLARI MEXANIZMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	364
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi	
20GL MARKALI PO'LATDAN TAYYORLANADIGAN YUK VAGONI YON RAMASI QUYMASIDA KIRISHUV G'OVAKLAR HOSIL BO'LISH QONUNIYATLARINI TADQIQ QILISH	368
Chorshanbiyeva Lobar, Turaxodjayev Nodir, Nuriddinov Otabek, Kenjayev Elshod	
O'ZGARUVCHAN TEZLIKLI, OG'MA QATOR QOZIQLI, SINUSOIDAL PLANKALI BARABANLARDA PAXTA BO'LAGINING ZARBALI TA'SIRI MODELI.....	374
Djurayev Anvar, Qorachayeva Oltinoy	
SANOAT KORXONALARINI ESG ASOSIDA JARAYONLI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	379
Azimova Maxfuza Rashidovna	
TURIZM SOHASIDA AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH VA YANGI ISH O'RINLARINI YARATISHGA QARATILGAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH	386
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINI SOLIQQA TORTISHNING HUQUQIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	391
Sarsengalieva Albina, Sarsenbaev Bakhitjan	
DETERMINANTS OF THE SHADOW ECONOMY: A CONCEPTUAL CLASSIFICATION AND CROSS-COUNTRY EVIDENCE	395
Rakhmonov Azizjon Sadullayevich	
ELEKTRON TIJORAT ORQALI CHAKANA SAVDONI OSHIRISH YO'LLARI (POYABZAL SANOATI MISOLIDA)	403
Makhmudova Munisaxon Abbos qizi	
BYUDJET TASHKILOTLARI AUDITIDA AUDITORLIK TANLAMASINING IQTISODIY MOHIYATI VA TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Muqumov Jasur Bosimovich	
BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	415
Aitmuratova Miyrigul Jalgasovna	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA TANNARXNI ANIQLASHNING NAZARIY MASALALARI.....	420
Jumaniyazov Iskandar Bohodirovich	



DAVLAT TASHKILOTLARIDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISHNING PROAKTIV TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI TAHLILI	424
Xurshida Maxmadaminova	
ZAMONAVIY DASTURLAR YORDAMIDA MULTIMODAL TASHISHLAR VA LOGISTIKA TIZIMLARI SOHASIDAGI ILMIY TADQIQOTLARNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARINI ANIQLASH	430
Zohidov Muhiddin G'ofurjon o'g'li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AGROBIZNESNI DIVERSIFIKATSIYA QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	436
Noraliyeva Gavhar Murodqulovna, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA JALB ETILGAN INVESTITSİYALARNING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI EKONOMETRIK TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	441
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH VA QAYTA ISHLASH IMKONIYATLARI.....	447
Xamdamov Amriddin, Madig'oyibov Jamshid	
РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ЖИДКОГО И ТВЁРДОГО АНТИГОЛОЛЁДНОГО РЕАГЕНТА ИЗ МЕСТНЫХ СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ	452
Дадаходжаев Абдулла, Ахмедов Мансур, Гуро Виталий	
АНАЛИЗ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ТЕХНИКИ ДЛЯ УПЛОТНЕНИЯ ДАМБ	457
Шомирзаев Эргаш Хурсанович	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLLIGINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISH TIZIMINING ROLI	465
Zakirov Mir Timur Zakir o'g'li	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLLIGINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISH TIZIMINING ROLI

Zakirov Mir Timur Zakir o'g'li

Urganch RANCH texnologiya universiteti

Iqtisodiyot kafedrası stajor o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

ORCID: 0009-0001-7167-5860



Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zini o'zi band qilish tizimining tadbirkorlik subyektlari faolligini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'zini o'zi band qilish institutining O'zbekistonda shakllanish bosqichlari, uning rasmiy tadbirkorlikka o'tish uchun "ko'priq" vazifasini bajarishi, soliqlar va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari hamda mavjud tizimli muammolar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari o'zini o'zi band qilish tizimini takomillashtirish kichik tadbirkorlik subyektlari sonini ko'paytirish, norasmiy bandlikni qisqartirish va aholi daromadlarini legallashtirish uchun muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: o'zini o'zi band qilish, tadbirkorlik faolligi, norasmiy bandlik, yakka tartibdagi tadbirkorlik, ijtimoiy soliq, kichik biznes, legallashtirish.

Аннотация. В данной статье анализируется роль системы самозанятости в повышении предпринимательской активности субъектов предпринимательства. В исследовании рассмотрены этапы формирования института самозанятости в Узбекистане, его значение как «переходного моста» к официальной предпринимательской деятельности, механизмы налогового и финансового стимулирования, а также существующие системные проблемы. Результаты исследования показывают, что совершенствование системы самозанятости является важным фактором увеличения количества субъектов малого предпринимательства, сокращения неформальной занятости и легализации доходов населения.

Ключевые слова: самозанятость, предпринимательская активность, неформальная занятость, индивидуальное предпринимательство, социальный налог, малый бизнес, легализация.

Abstract. This article examines the role of the self-employment system in enhancing the entrepreneurial activity of business entities. The study explores the stages of development of the self-employment institution in Uzbekistan, its function as a bridge to formal entrepreneurship, tax and financial incentive mechanisms, and the existing systemic challenges. The findings indicate that improving the self-employment system is a significant factor in increasing the number of small business entities, reducing informal employment, and legalizing household incomes.

Keywords: self-employment, entrepreneurial activity, informal employment, sole proprietorship, social tax, small business, income legalization.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faolligini oshirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Aholining iqtisodiy faolligini rasmiy sektorga jalb etish, norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat munosabatlarini legallashtirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda o'zini o'zi band qilish instituti muhim iqtisodiy-huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu institut fuqarolarga murakkab ma'muriy tartib-taomillar va yuqori moliyaviy xarajatlarsiz mustaqil daromad topish imkoniyatini yaratish bilan bir qatorda, ularni bosqichma-bosqich rasmiy tadbirkorlik faoliyatiga jalb etuvchi institutsional platforma vazifasini bajaradi.

O'zbekistonda o'zini o'zi band qilish tizimi 2018–2020-yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar doirasida shakllanib, Prezidentning 2020-yil 8-iyundagi PQ–4742-son qarori asosida yanada takomillashtirildi. Mazkur tizim fuqarolarga davlat ro'yxatidan o'tishning soddalashtirilgan tartibi, litsenziyalash talablarining minimallashtirilishi hamda murakkab buxgalteriya hisobi yuritish majburiyatlarisiz qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish imkonini berdi. Natijada o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni jadal sur'atlarda ortib, 2025-yil boshiga kelib 4,4 million nafarga yetdi. Bu ko'rsatkichning birgina 2024-yil davomida 76,5 foizga o'sgani mazkur institutning iqtisodiy ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, o'zini o'zi band qilish tizimining tadbirkorlik subyektlari faolligiga, xususan yakka tartibdagi

tadbirkorlar hamda yuridik shaxslar sonining ko'payishiga ta'siri, o'zini o'zi band qilishdan rasmiy tadbirkorlikka o'tish mexanizmlari va ushbu jarayonga to'sqinlik qilayotgan omillar yetarli darajada ilmiy tahlil qilinmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati ushbu institutning bandlikni ta'minlashdagi ijtimoiy funksiyasiga e'tibor qaratgan bo'lib, uning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi iqtisodiy samaradorligi kompleks baholanmagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o'zini o'zi band qilish tizimining tadbirkorlik subyektlari faolligini oshirishdagi rolini ilmiy asosda baholash, mavjud institutsional muammolarni aniqlash hamda ushbu tizimning samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Norasmiy bandlik va o'zini o'zi band qilish masalalari xalqaro iqtisodiyot nazariyasida uzoq yillardan buyon dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan tayyorlangan tadqiqotlarda norasmiy iqtisodiyotdan rasmiy sektorga o'tish (formalization) mehnat unumdorligini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini kengaytirish hamda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida e'tirof etiladi [1].

Norasmiy iqtisodiyot nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan Hernando de Soto (2000) ma'muriy tartib-taomillarning murakkabligi va yuqori tranzaksion xarajatlar kichik tadbirkorlik rivojlanishining asosiy institutsional to'siqlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, ro'yxatdan o'tish tartiblarini soddalashtirish hamda mulk huquqlarining kafolatlanishi norasmiy faoliyatning rasmiy iqtisodiyotga integratsiyalashuvini tezlashtiradi [2].

Xalqaro amaliyotda Fransiya'dagi **micro-entrepreneur**, AQSh'dagi **sole proprietor**, Buyuk Britaniya'dagi **sole trader** hamda ayrim davlatlarda qo'llanilayotgan **startup visa** dasturlari aholini bosqichma-bosqich rasmiy tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishga xizmat qiluvchi samarali institutsional mexanizmlar sifatida e'tirof etiladi [3]. Jahon banki ekspertlarining xulosalariga ko'ra, biznesni ro'yxatdan o'tkazish jarayonining soddalashtirilishi, soliq yukining maqbullashtirilishi va davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi yangi tashkil etilayotgan kichik biznes subyektlari sonining ortishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi [4].

O'zbekistonda ham o'zini o'zi band qilish instituti so'nggi yillarda iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mahalliy olimlar mazkur institutni nafaqat vaqtinchalik bandlik shakli, balki rasmiy tadbirkorlik faoliyatiga kirishning boshlang'ich bosqichi sifatida baholaydilar. Shu bilan birga, Soliq qo'mitasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Milliy statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilinayotgan rasmiy statistik ma'lumotlar o'zini o'zi band qilish tizimining rivojlanish dinamikasi va uning iqtisodiy natijalarini kompleks baholash imkonini bermoqda [5; 6].

Shunga qaramay, mavjud ilmiy tadqiqotlarda o'zini o'zi band qilish institutining rasmiy tadbirkorlikka transformatsiyalanish mexanizmlari, ushbu jarayonning iqtisodiy samaradorligi hamda tadbirkorlik faolligiga uzoq muddatli ta'siri yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy bilishning statistik, qiyosiy, tizimli va analitik metodlaridan kompleks foydalanildi. Statistik-tahliliy metod yordamida O'zbekistonda o'zini o'zi band qilgan shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda kichik biznes subyektlari sonining o'zgarish dinamikasi tahlil qilindi. Tizimli yondashuv asosida o'zini o'zi band qilish instituti bilan rasmiy tadbirkorlik faoliyati o'rtasidagi institutsional bog'liqlik hamda transformatsiya mexanizmlari baholandi.

Qiyosiy tahlil metodi orqali Fransiya, AQSh va boshqa davlatlarda qo'llanilayotgan soddalashtirilgan tadbirkorlik modellari o'rganilib, ularning O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, umumlashtirish va mantiqiy tahlil metodlari asosida o'zini o'zi band qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Milliy statistika qo'mitasi, shuningdek Xalqaro Mehnat Tashkiloti va Jahon bankining rasmiy statistik ma'lumotlari hamda analitik hisobotlari tashkil etdi.

Mazkur metodologik yondashuv o'zini o'zi band qilish tizimining tadbirkorlik faolligiga ta'sirini institutsional va statistik nuqtai nazardan kompleks baholash hamda ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. O'zini o'zi band qilish tizimining shakllanishi va rivojlanish dinamikasi



O'zbekistonda o'zini o'zi band qilish instituti 2020-yilda qabul qilingan Prezidentning PQ-4742-son qarori bilan mustahkam huquqiy asosga ega bo'ldi. Mazkur qarorga muvofiq fuqarolarga 100 dan ortiq faoliyat turi bo'yicha davlat ro'yxatidan o'tmasdan, mobil ilovalar orqali soddalashtirilgan tartibda mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Ushbu yondashuv ma'muriy xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirib, norasmiy bandlikni legallashtirish hamda iqtisodiy faollikni rag'batlantirishning muhim instrumentiga aylandi.

Statistik ma'lumotlar mazkur institutning qisqa muddat ichida jadal rivojlanganini ko'rsatadi. Jumladan, 2024-yil yanvar holatiga o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni 2,5 million nafardan oshgan bo'lsa, 2025-yil boshiga kelib ushbu ko'rsatkich 4,4 million nafarga yetdi. Demak, bir yil davomida ularning soni 76,5 foizga ko'paygan. Ushbu o'sish sur'atlari o'zini o'zi band qilish tizimining aholi tomonidan faol qabul qilinganini hamda uning mehnat bozorini rasmiylashtirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining ham yuqori sur'atlarda ortgani kuzatilmoqda. 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, mamlakatda yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 2,8 million nafardan oshib, avvalgi yilning mos davriga nisbatan 79,5 foizga yoki qariyb 1,2 million nafarga ko'paygan. O'zini o'zi band qilgan shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining deyarli bir xil sur'atlarda o'sishi mazkur institutning rasmiy tadbirkorlik faoliyatiga o'tishning dastlabki bosqichi sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Demak, o'zini o'zi band qilish tizimi nafaqat bandlikni ta'minlash vositasi, balki yangi tadbirkorlik subyektlarini shakllantiruvchi institutsional mexanizm vazifasini ham bajarmoqda.

2. O'zini o'zi band qilishdan rasmiy tadbirkorlikka o'tishni rag'batlantirish mexanizmlari

Davlat tomonidan o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning rasmiy tadbirkorlik faoliyatiga o'tishini qo'llab-quvvatlash maqsadida moliyaviy, soliq va institutsional rag'batlantirish mexanizmlari joriy etilgan.

Xususan, ijtimoiy soliqni muntazam to'layotgan o'zini o'zi band qilgan fuqarolarga **"Biznesga birinchi qadam"** dasturi doirasida bank kartalari orqali bir yil muddatga 5 million so'mgacha mikroqarzlarni ajratish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Mazkur mexanizm boshlang'ich kapital yetishmovchiligi muammosini yumshatish orqali kichik biznesni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, o'zini o'zi band qilgan shaxslarning yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tishi jarayonida davlat bojidan ozod etilishi rasmiy tadbirkorlikka o'tish xarajatlarini kamaytiruvchi muhim iqtisodiy rag'bat hisoblanadi. Ushbu imtiyoz tadbirkorlik faoliyatini legallashtirishni tezlashtirishga xizmat qiladi.

Soliq tizimida ham muhim institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, 2024-yil 1-yanvardan boshlab yillik daromadi 100 million so'mdan ortiq bo'lgan o'zini o'zi band qilgan shaxslar yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan aylanmadan olinadigan soliq tartibiga o'tkazildi. Bunda umumiy stavka 4 foizni, elektron savdo platformalari orqali faoliyat yurituvchi subyektlar uchun esa 2 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, beshinchi toifadagi hududlarda mazkur stavka 2026-yil 1-yanvargacha 1 foiz etib belgilangan.

Mazkur soliq mexanizmi iqtisodiy mazmuniga ko'ra ikki tomonlama funksiyani bajaradi. Bir tomondan, yuqori daromadga ega bo'lgan o'zini o'zi band qilgan fuqarolarni rasmiy tadbirkorlik subyektlari bilan teng soliq maydoniga olib chiqadi, ikkinchi tomondan esa ularni yakka tartibdagi tadbirkor maqomiga o'tishga rag'batlantiradi. Chunki mazkur maqom bank kreditlaridan foydalanish, yollanma xodimlarni ishga qabul qilish, davlat xaridlarida ishtirok etish va yirik xo'jalik shartnomalarini tuzish kabi qo'shimcha iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi.

3. Tizimning amaldagi muammolari va institutsional cheklovlari

O'tkazilgan tahlillar o'zini o'zi band qilish tizimining rivojlanishi bilan bir qatorda qator institutsional muammolar mavjudligini ham ko'rsatmoqda.

Birinchi, 2020–2023-yillarda ro'yxatdan o'tgan o'zini o'zi band qilgan shaxslarning atigi 13 foizi ijtimoiy soliq to'lovlarini amalga oshirgani kuzatiladi. Bu holat ro'yxatdan o'tgan fuqarolarning muayyan qismi faol iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanmayotganini yoki mavjud soliq majburiyatlarini to'liq bajarmayotganini anglatadi. Natijada tizimning haqiqiy iqtisodiy samaradorligini baholashda faqat ro'yxatdan o'tganlar soniga tayanish yetarli emasligi namoyon bo'ladi.

Ikkinchi, davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan subsidiya dasturlarining samaradorligi ham qo'shimcha baholashni talab qiladi. Jumladan, 2023-yilda **"Ayollar daftari"** va **"Yoshlar daftari"** jamg'armalari orqali qariyb 65 ming nafar fuqaroga 313 milliard so'm subsidiya ajratilgan bo'lsa-da, ushbu shaxslar orasida ijtimoiy soliq to'lovchilari ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu holat davlat moliyaviy ko'magining tadbirkorlik faoliyatiga real ta'sirini muntazam monitoring qilish zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, o'zini o'zi band qilish maqomining soddalashtirilganligi ayrim hollarda tadbirkorlarning ushbu maqomda uzoq muddat qolishiga sabab bo'lmoqda. Natijada ular bank kreditlari olish, yollanma xodimlarni ishga qabul qilish, eksport faoliyatini amalga oshirish hamda yirik xo'jalik shartnomalarini tuzish imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaydi. Bu esa biznesning kengayish salohiyatini cheklovchi omillardan biri hisoblanadi.

To'rtinchidan, o'zini o'zi band qilish faoliyati turlari ro'yxatining davriy ravishda optimallashtirilishi ayrim

iqtisodiy faoliyat turlari vakillarini muddatidan oldin yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs sifatida qayta ro'yxatdan o'tishga majbur qilmoqda. Mazkur holat, bir tomondan, raqobat muhitini tenglashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan esa ayrim subyektlar uchun moslashuv xarajatlarini oshiradi.

4. O'zini o'zi band qilish tizimining tadbirkorlik faolligiga ta'siri

O'tkazilgan tahlillar o'zini o'zi band qilish tizimi tadbirkorlik faolligini oshirishga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Birinchidan, ushbu institut ilgari norasmiy iqtisodiyotda faoliyat yuritgan fuqarolarni rasmiy iqtisodiy maydonga olib chiqib, kelgusida ular orasidan yangi yakka tartibdagi tadbirkorlar va kichik biznes subyektlarining shakllanishi uchun institutsional zamin yaratmoqda.

Ikkinchidan, o'zini o'zi band qilish tizimi amaldagi tadbirkorlik subyektlari uchun ham moslashuvchan mehnat resurslarini shakllantirish imkonini bermoqda. Natijada kichik biznes subyektlari qo'shimcha ishchi kuchi va xizmat ko'rsatuvchi hamkorlarni ortiqcha ma'muriy xarajatlarsiz jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Biroq tizimning haqiqiy samaradorligini baholashda faqat ro'yxatdan o'tgan fuqarolar sonining ortishi yetarli mezon hisoblanmaydi. Uning natijadorligi o'zini o'zi band qilgan shaxslarning iqtisodiy faolligi, ijtimoiy soliq to'lovlari, daromadlarining legallasuvi hamda yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs maqomiga muvaffaqiyatli o'tish ulushi kabi ko'rsatkichlar orqali kompleks baholanishi maqsadga muvofiqdir. Aynan ushbu indikatorlar tizimning mamlakatda tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishdagi real iqtisodiy samarasini aks ettiradi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda o'zini o'zi band qilish tizimining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Qiymat
Ro'yxatdan o'tgan faoliyat turlari soni	100 dan ziyod
O'zini o'zi band qilganlar soni (2024-y. yanvar)	2,5 mln.dan ortiq
O'zini o'zi band qilganlar soni (2025-y. yanvar)	4,4 mln., o'sish 76,5%
YTTlar soni (2024-y. 1-aprel)	2,8 mln.dan ortiq, o'sish 79,5%
Ijtimoiy soliqni to'lovchilar ulushi (2020–2023)	13%
“Ayollar/Yoshlar daftari” orqali subsidiya (2023-y.)	65 ming kishi, 313 mlrd so'm
Aylanma solig'i stavkasi (daromad >100 mln so'm)	4% (elektron savdoda 2%, 5-toifa hududlarda 1%)

XULOSA VA TAVSIYALAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari O'zbekistonda o'zini o'zi band qilish tizimi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va norasmiy bandlikni qisqartirishning samarali institutsional mexanizmlaridan biriga aylanganligini ko'rsatdi. Mazkur tizim fuqarolar uchun iqtisodiy faoliyatni qonuniy asosda boshlash imkoniyatini yaratish orqali ularning rasmiy iqtisodiyotga integratsiyalashuvini jadallashtirmoqda hamda yakka tartibdagi tadbirkorlik va kichik biznes subyektlari sonining ortishiga xizmat qilmoqda. O'zini o'zi band qilgan shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining yuqori sur'atlarda o'sishi ushbu institutlarning o'zaro uzviy bog'liqligini va o'zini o'zi band qilish tizimi rasmiy tadbirkorlik faoliyatiga o'tishning muhim bosqichi ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida tizim samaradorligini cheklayotgan qator institutsional muammolar ham aniqlandi. Xususan, ijtimoiy soliq to'lovchilari ulushining pastligi, davlat tomonidan ajratilayotgan subsidiya va moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarining natijadorligini baholash mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi, shuningdek, o'zini o'zi band qilgan shaxslarning rasmiy tadbirkorlik subyektlariga transformatsiyalanish darajasining nisbatan pastligi tizimni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Demak, tizimning muvaffaqiyati faqat ro'yxatdan o'tgan shaxslar sonining ortishi bilan emas, balki ularning barqaror iqtisodiy faoliyat yuritishi, soliq majburiyatlarini bajarishi va rasmiy tadbirkorlik subyektlariga muvaffaqiyatli o'tishi bilan baholanishi maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

O'zini o'zi band qilishdan rasmiy tadbirkorlikka o'tishning bosqichma-bosqich modelini joriy etish.

Bunda yakka tartibdagi tadbirkor maqomiga o'tgan shaxslar uchun dastlabki yillarda differensial soliq stavkalari hamda imtiyozli kredit va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini qo'llash maqsadga muvofiq.



Ijtimoiy soliq to'lovlari monitoringini raqamlashtirish. Sun'iy intellekt va raqamli platformalar asosida avtomatik eslatmalar, elektron monitoring va xavfga asoslangan nazorat tizimlarini joriy etish orqali soliq intizomini oshirish hamda uzoq muddat faoliyat yuritmayotgan subyektlarni qayta ro'yxatdan o'tkazish yoki hisobdan chiqarish mexanizmlarini soddalashtirish lozim.

Davlat moliyaviy ko'magining natijadorligini oshirish. Subsidiyalar ajratish bilan cheklanib qolmasdan, mablag' oluvchilar faoliyatini kamida 1–2 yil davomida biznes mentorligi, konsalting xizmatlari va monitoring dasturlari orqali kuzatib borish tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

Hududiy tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish. O'zini o'zi band qilgan fuqarolar uchun biznes-inkubatorlar, maslahat markazlari va raqamli xizmatlar tarmog'ini kengaytirish, ularga buxgalteriya hisobi, marketing, biznes-rejalashtirish, huquqiy maslahat hamda moliyaviy savodxonlik bo'yicha bepul konsultatsiyalarni tashkil etish zarur.

Normativ-huquqiy tartibga solishning barqarorligini ta'minlash. O'zini o'zi band qilish faoliyati turlari ro'yxatiga o'zgartirishlar kiritishda tadbirkorlik subyektlari uchun yetarli moslashuv davrini belgilash, ushbu o'zgarishlarni oldindan e'lon qilish hamda ularning iqtisodiy ta'sirini baholash amaliyotini institutsionallashtirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, o'zini o'zi band qilish tizimi qisqa muddatli bandlikni ta'minlash vositasi sifatida emas, balki tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish, norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik institutsional mexanizm sifatida qaralishi lozim. Shu bois kelgusida mazkur tizimni takomillashtirish davlatning tadbirkorlikni rivojlantirish siyosati bilan uzviy integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi, uning samaradorligi esa rasmiy tadbirkorlikka o'tish darajasi, yangi biznes subyektlari tashkil etilishi, bandlik sifati va soliq tushumlari kabi natijaviy ko'rsatkichlar asosida muntazam baholab borilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. International Labour Organization (ILO). Women and Men in the Informal Economy: A Statistical Picture. 3rd ed. – Geneva: International Labour Office, 2018.
2. De Soto H. The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else. – New York: Basic Books, 2000.
3. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). The Missing Entrepreneurs 2021: Policies for Inclusive Entrepreneurship and Self-Employment. – Paris: OECD Publishing, 2021.
4. World Bank. Business Ready (B-READY): Regulatory Framework for Private Sector Development. – Washington, DC: World Bank, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. O'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, 2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Aholi bandligi va o'zini o'zi band qilish tizimi bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent: Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, 2024.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4742-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4849607?ONDATE=28.02.2025>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi "2024-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash davlat dasturi to'g'risida" PQ-7-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6752402>
9. Daryo. Hukumatga o'zini o'zi band qilish tartibida mehnat faoliyatini amalga oshirish masalalari bo'yicha parlament so'rovi yuborildi. – Toshkent, 2024.
10. Spot. O'zini o'zi band qilganlar qanday soliqqa tortiladi? – Toshkent, 2024.
11. Gazeta.uz. O'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun faoliyat turlari nega qisqartirilmoqda? – Toshkent, 2025.
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: 2024-yil yakunlari bo'yicha statistik to'plam. – Toshkent: Milliy statistika qo'mitasi, 2025.
13. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyati bo'yicha rasmiy statistika. – Toshkent, 2025.
14. International Labour Organization (ILO). Transition from the Informal to the Formal Economy Recommendation (No. 204). – Geneva: ILO, 2015.
15. World Bank. World Development Report 2019: The Changing Nature of Work. – Washington, DC: World Bank, 2019.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100